

ADABIYOTSHUNOSLIKDA SATIRA JANRINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI VA
KOMIK EFFEKT YARATISH USULLARI

Abdullayev Shavkatjon Shokirjon o'g'li
Namangan davlat universiteti, O'qituvchi

abdullayevshavkat1995@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21934032>

Annotatsiya: Mazkur maqolada satira janrining lingvopoetik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda lingvopoetika tushunchasining mazmun-mohiyati, uning badiiy matnni o'rganishdagi ahamiyati hamda satirik asarlarda til birliklarining estetik vazifalari yoritilgan. Shuningdek, satirik va komik effektlarni yuzaga keltiruvchi lingvistik vositalar hamda ularning badiiy ta'sir mexanizmlari tahlil etilgan. Bundan tashqari, B. Dzemidok tomonidan ajratilgan komiklik yaratish usullari tavsiflanib, satiraning mazmuni va uslubiy xususiyatlari ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: satira, lingvopoetika, komik effekt, badiiy matn, estetik vazifa, komiklik, til birliklari, satirik ta'sir

Аннотация: В данной статье проводится научно-теоретический анализ лингвопоэтических особенностей жанра сатиры. В исследовании раскрываются содержание и сущность понятия лингвопоэтики, его значение в изучении художественного текста, а также эстетические функции языковых единиц в сатирических произведениях. Кроме того, анализируются лингвистические средства создания сатирического и комического эффектов, а также механизмы их художественного воздействия. Наряду с этим характеризуются способы создания комического эффекта, выделенные Б. Дземеидоком, и на научной основе раскрываются содержательные и стилистические особенности сатиры.

Ключевые слова: сатира, лингвопоэтика, комический эффект, художественный текст, эстетическая функция, комизм, языковые единицы, сатирическое воздействие.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the linguopoetic features of the satire genre. The study examines the concept of linguopoetics, its significance in the study of literary texts, and the aesthetic functions of linguistic units in satirical works. It also analyzes the linguistic devices that produce satirical and comic effects, as well as the mechanisms of their artistic impact. In addition, the methods of creating comic effects identified by B. Dzemidok are described, and the semantic and stylistic features of satire are examined on a scientific basis.

Keywords: satire, linguopoetics, comic effect, literary text, aesthetic function, comicity, linguistic units, satirical impact.

Adabiyotshunoslikda satira jamiyatdagi turli nuqson va kamchiliklarni tanqidiy ruhda aks ettiruvchi badiiy janr sifatida talqin etiladi. Mazkur janrning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish satirik matnlarning til birliklari hamda uslubiy qurilishdagi o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Shu sababli satiraga lingvopoetik nuqtayi nazardan yondashishda, avvalo, lingvopoetika tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklar: fonetik, morfemik, leksik va boshqalarning badiiy estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardan ekanligini alohida ta'kidlanadi, chunki —bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniqlash tasavvur qilish mumkin [Xolmatova, 2023: B.282-284]. Ya'ni, lingvopoetik tahlil badiiy matnda qo'llanilgan ifoda vositalarining estetik vazifalarini ochib beradi va asar mazmunini teranroq anglash uchun yo'l ko'rsatadi.

Shuningdek, V.V. Vinogradov badiiy asar tilini uning estetik jihati bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarurligini ta'kidlab, yozuvchi tomonidan qo'llangan til vositalari badiiy maqsadga muvofiq tarzda birlashishi va estetik jihatdan asoslanishini qayd etadi [1954: B.5]. Ushbu sohaning predmeti badiiy matnda ishlatilgan til birliklarining majmui bo'lib, ular yordamida yozuvchi o'zining g'oyaviy-badiiy fikrlarini namoyon etish uchun zarur bo'lgan badiiy-estetik ta'sirni ta'minlaydi [Zadornova, 1992: B.49]. Demak, satira janrining lingvopoetik jihatdan o'rganilishi uni estetik mazmuni, ishora etilayotgan

ma'nosini to'g'ri anglashda o'quvchiga yordam beradi. Biroq satirik matnlarda mazkur ma'nolarni yuzaga chiqaruvchi lingvistik vositalarning tabiati va xususiyatlari hanuzgacha yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Zamonaviy tilshunoslik adabiyotida satirik va komik elementlarni tadqiq qilishga uncha katta e'tibor berilmaydi. Shu boisdan, satira va komediyani tahlil qilish hozirgi davrga qadar chuqur o'rganilmagan soha bo'lib kelmoqda va u chuqur yondashuvni talab qilmoqda [Tsikusheva, 2008:B.100-103]. Kulgi effektini yaratishga xizmat qiladigan lingvistik vositalar tizimi hozirgacha ochiq masala bo'lib qolmoqda. Xususan, Aleksandr Nikolaevich Luk o'zining “*O chuvstve yumora i ostroumii*” kitobida til orqali komik effektini yaratadigan barcha vositalarni o'z ichiga oladigan yagona va umumiy tizimning hali ishlab chiqarilmaganini yuqoridagi muammoning asosiy sababi sifatida keltiradi [Luk, 1968]. Ya'ni, yagona tizimning ishlab chiqilmaganligining asosiy omili sifatida komik effektini yuzaga keltirish hodisasi nafaqat til birliklariga, balki kontekst, nutq normalari va madaniy omillarga ham bog'liqdir. Demak satiraning asosiy belgisi uning shaklida emas, balki u o'z oldiga qo'ygan maqsad va mazmunida namoyon bo'ladi.

Komik effektning yuzaga kelishi ham satirik matnning lingvopoetik qurilishi bilan chambarchas bog'liq hodisa hisoblanadi. Shunga qaramasdan, har qanday kulgili holatni satira sifatida baholab bo'lmaydi. Komiklik ko'pincha satirik mazmunni kuchaytiruvchi estetik mexanizm vazifasini bajaradi va muayyan ijtimoiy yoki axloqiy illatni fosh etish bilan birlashgandagina satirik yo'nalish kasb etadi. Shu sababli satirik matnda komik effekt va tanqidiy mazmun o'zaro uzviy aloqada namoyon bo'ladi: komiklik o'quvchida kulgi uyg'otsa, uning zamiridagi nomuvofiqlik, qarama-qarshilik yoki bo'rttirish muallifning tanqidiy munosabatini ochib beradi va o'quvchi mushohada qilishga undaydi. Demak, satiraning lingvopoetik xususiyatini belgilovchi asosiy jihatlardan biri kulgi va tanqidning bir badiiy tizimda uyg'unlashuvidir.

Shunga qaramay, satira harakterini yuzaga chiqaruvchi xususiyatlarni aniqlash doirasida ko'plab izlanishlar olib borilgan. Xususan, mashhur satira tadqiqotchisi B. Dzemidok o'z asarlarida satira va komik effekt yaratishning beshta usulini ajratib ko'rsatgan:

1. Hodisani o'zgartirish va deformatsiya qilish orqali-ya'ni real voqea yoki obrazni maqsadli o'zgartirib, uni kulguli yoki tanqidiy ruhda ifodalash;
2. Kutilmagan effektlar-o'quvchilar yoki tinglovchilarda kutilmagan kulgu hosil qilish uchun ular kutmagan, to'satdan yuzaga keladigan vaziyat yoki natija orqali;
3. Hodisalar o'rtasidagi nomutanosiblik-katta va kichik, sabab va natija o'rtasidagi nisbatning buzilishi orqali komik xususiyat yaratish;
4. Mutlaqo o'xshash bo'lmagan hodisalarni hayoliy ravishda birlashtirish-ya'ni aslida bog'liq bo'lmagan narsa va hodisalarni bir-biriga tenglashtirish yoki qiyoslash orqali kulgu effektini yaratish;
5. Mantiqiy yoki amaliy me'yorlarga to'g'ri kelmaydigan hodisalarni yaratish-sog'lom fikrlovchi inson me'yorlariga zid keluvchi vaziyatlarni tasvirlash orqali komik effekt yaratish [1993:B.53-57].

Yuqoridagi tansiflardan xulosa qilish mumkinki, asar yaratilish jarayonida unga satirik xususiyat bag'ishlashda turlicha omillar ahamiyat kasb etadi va hayotiy normalarga zid keluvchi hodisalar, to'satdan yuzaga chiquvchi manzaralar komik va satirik effektlarni yuzaga chiqarishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dziemidok, B. The Comical: A Philosophical Analysis. — Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1993. — pp. 53–57.
2. Luk, A. N. O chuvstve yumora i ostroumii. — M.: Iskustvo, 1968.
3. Tsikusheva, I. V. Lingvisticheskie sredstva sozdaniya komicheskogo effekta v skazkakh. // Vestnik Adygeyskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 2: Filologiya i iskustvovedenie. — 2008. — Vyp. 10. — S. 100–103.
4. Vinogradov, V. V. Yazyk khudozhestvennogo proizvedeniya. // Voprosy yazykoznaniya. — M.: Nauka, 1954. — № 5. — S. 29–38.
5. Xolmatova, A. Q. Q. Tilshunoslikda lingvopoetika va lingvopoetik vositalarning o'rganilishi tarixi. // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. — 2023. — 3(7). — B. 282–284.
6. Zadornova, V. Ya. Slovesno-khudozhestvennoe proizvedenie na raznykh yazykakh kak predmet lingvopoeticheskogo issledovaniya. 1992. — 49 s.